

UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH

Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

E-mail: ab-raximov@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirishga doir iqtisodiy tahlil uslublariga oid muhim jihatlar bayon etilgan. Xususan, mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalarini faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili uchun ko‘rsatkichlarning guruhlangan tizimi, korxonalar faoliyatini tahlil qilish tasnifining mezonlar bo‘yicha ssenariysi hamda rivojlantirishga oid iqtisodiy-statistik tahlil keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ekonometrik model, mehmonxona va umumiy ovqatlanish, kompleks iqtisodiy tahlil, ko‘rsatkichlar tizimi, sinergetik omillar, tahlil tasnifining mezonlari.

Аннотация

В статье описаны современные методические подходы к обоснованию эконометрического обеспечения развития продовольственного обеспечения и общественного питания. В частности, представлена комплексная система показателей для комплексного экономического анализа деятельности предприятий общественного размещения и общественного питания, сценарий классификации анализа деятельности предприятий по критериям, экономико-статистический анализ развития.

Ключевые слова: эконометрическая модель, отель и питание, комплексный экономический анализ, система показателей, синергетические факторы, критерии классификации анализа

Abstract

The article describes the modern methodological approaches of establishing econometric provision of food and general catering services development. In particular, a complex system of indicators for complex economic analysis of the activities of public accommodation and catering enterprises, a scenario for classifying the analysis of the activities of enterprises by criteria, and economic statistical analysis of development are presented.

Keywords: econometric model, hotel and catering, complex economic analysis, system of indicators, synergetic factors, analysis classification criteria.

KIRISH

Maqolada mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirishga doir iqtisodiy tahlilning uslubiy yondashuvlari bilan bog‘liq muhim jihatlar bayon etilgan. Xususan, mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalarini faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili uchun ko‘rsatkichlarning guruhlangan tizimi, korxonalar faoliyatini

tahlil qilish tasnifining mezonlar bo'yicha ssenariysi hamda rivojlantirishga oid iqtisodiy-statistik tahlil keltirilgan.

Dunyo tajribasidan kelib chiqib, zamonaviy xizmat ko'rsatish tarmoqlarining joriy davrdagi holati ma'lum davrlar mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlar asosida shakllanish jarayonida vujudga keladi. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarining barchasi umumiy va o'ziga xos rivojlanish tendensiyalariga ega. Ushbu rivojlanish tendensiyalarini o'rganishda turli ko'rsatkichlar tanlab olinadi. Bu ko'rsatkichlar asosiy indikatorlar sifatida iqtisodiyot tarmog'ining eng muhim miqdoriy ifodalangan ishlab chiqarish hajmi, iqtisodiy o'sishi, resurslardan foydalanish samaradorligi, asosiy kattaliklarning nisbiy yoki absolyut farqlari kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichlarni shakllantiruvchi omillar ham aniqlab olinadi.

Mehmonxona va ovqatlanish xizmatlari rivojlanish tendensiyasini tadqiq etishda mazkur tarmoqning boshqa tarmoqlar, xususan, ko'p yillik oziq-ovqat sanoati bilan aloqadorlik jihatidan ham tahlil qilinishi zarur [1]. Umumiy ovqatlanish sohasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy rivojlanish uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini targ'ib qilish, milliy madaniyatni ommalashtirish va zamonaviy gastronomik xizmat turlarini rivojlantirish orqali turizm salohiyatini oshirishda bu sohaning o'rni beqiyosdir.

2025-yilda raqobatning kuchayishi, mijozlar xatti-harakatlarining o'zgarishi, ekologik va sog'lom ovqatlanish tamoyillariga e'tiborning ortishi ushbu soha oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Shu bois, umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanishining hozirgi tendensiyalarini chuqur tahlil qilish, ular asosida istiqbolli yo'nalishlarni belgilab olish va sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Xizmat ko'rsatish sifatining oshirilishi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi va iste'molchilarning ehtiyojlariga mos takliflarning shakllantirilishi umumiy ovqatlanish xizmatlari segmentining raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy olimlarning tadqiqotlarida mehmonxona bozorining rivojlanish tendensiyalari guruhlariga ajratilgan holda keltiriladi. Bu tendensiyalar son jihatdan turlicha bo'lib, turizmni rivojlantirish fonida har bir geografik hududga xos tarzda to'rtta asosiy model ajratib ko'rsatilgan: Yevropa modeli, Osiyo modeli, Amerika modeli va Sharq-Yevropa modeli. Osiyo modelida rivojlanish tendensiyasining asosiy xususiyatlarini shakllantiruvchi omillar sifatida qulay joylashuv, xizmat ko'rsatish hududining kengligi (infratuzilma omili), tashqi dizayn va kreativ yondashuvlar (ijtimoiy omil), xizmat ko'rsatish va qo'shimcha xizmatlarning kam xarajatli bo'lishi (iqtisodiy omil) alohida ajratib ko'rsatilgan [2].

Xorijiy olimlar B. Brocherton, J. Voolfenden, B. Ximmet o'g'li tomonidan mehmonxona va umumiy ovqatlanish tarmoqlarini rivojlantirish tendensiyalari, xususan xodimlar salohiyati va kadrlar tayyorlash ko'rsatkichlari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda salohiyatli kadrlar tayyorlash sohaning rivojlanishida muhim omil sifatida ta'kidlanadi [3].

Iqtisodchi olimlar — professor Muxitdinov X. S., Raximov A. N., Juraev F. D., Ravshanova M. va Sultonov S. ilmiy qarashlarida har qanday ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, texnik-texnologik, axborot, intellektual va dasturiy resurslar yangilanish qonunlari ta'sirida innovatsion xarakterga ega resurslarga aylanishi mumkinligi g'oyasi ilgari suriladi [4], [5].

Mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirishni modellashtirish va prognozlash, ishlab chiqarishni ko'p mezonli optimallashtirish, hududiy rivojlanish va ko'p omilli empirik modellarni tasniflash masalalari Muxitdinov X. S., Raximov A. N., Ochilov M. A., Juraev F. D., Makhmanazarovna R. M. hamda Maxmatqulovlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan [7].

METODOLOGIYA

Tadqiqot davomida statistik ma'lumotlarni o'rganish, iqtisodiy taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, tanlanma kuzatish, tahlil va sintez, eng kichik kvadratlar usuli, korrelyatsion va regressiya tahlili kabi metodlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etishda, sohaning O'zbekistondagi o'ziga xos jihatlarini hisobga olib, xizmat ko'rsatish obyektlari soni va sig'imi, tashrif buyuruvchilar soni, xizmat ko'rsatish xarajatlari, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, ishchi kapitali hamda resurslar samaradorligi kabi ko'rsatkichlarga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ma'lumki, iqtisodiyot tarmog'iga oid har qanday xizmat turining o'ziga xos rivojlanish bosqichi mavjud. Bizning fikrimizcha, ushbu bosqichlarning mohiyati shundan iboratki, bu jarayonni tadqiq qilish — sohaning ahamiyatini aniqlash bilan birga, uning rivojlanish qonuniyatlariga oydinlik kiritishga xizmat qiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida mehmonxona xizmatlari ko'rsatish sohasida joylashtirish obyektlarining soni 2014-yilga nisbatan 2024-yilda 753 taga ortgan. Bu 273,5 foiz o'sishni anglatadi. Qashqadaryo viloyatida esa mazkur obyektlar soni 23 tadan 54 tagacha yetib, ortish darajasi 234,7 foizni tashkil etgan. Biroq bu ko'rsatkich bo'yicha mintaqada ortish darajasi nisbatan pastroq bo'lib, farq 38,7 foizni tashkil etadi. Har ikki holatda ham o'sish tendensiyasi kuzatiladi.

Mehmonxona xizmatlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlardan biri bu — mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish obyektlarining sig'imidir. 2014-yilda respublika bo'yicha bu ko'rsatkich 22600 birlikni tashkil qilgan bo'lsa, Qashqadaryo viloyatida 1012 birlik edi. 2024-yilga kelib, bu raqamlar mos ravishda 50642 va 2224 birlikka yetgan. Respublika miqyosida ortish darajasi 2,24 barobar, mintaqada esa 2,20 barobarni tashkil qilgan. Bu borada ham Qashqadaryo viloyatida nisbatan biroz pastroq o'sish kuzatilmoqda.

Mehmonxona xizmatlari bo'yicha hududiy rivojlanishdagi nomutanosiblik sabablari, boshqa omillar hisobga olinmagan taqdirda ham, yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinganda, mintaqadagi joylashtirish obyektlari sonining kamligi yaqqol ko'rinadi. So'nggi o'n ikki yillikda bu obyektlarning o'rtacha soni

respublika bo'yicha 759 ta, viloyat bo'yicha esa 42 taga teng bo'lib, ularning o'zaro nisbati atigi 5,5 foizni tashkil qiladi. Bu holat, tabiiy ravishda, mavjud joylar sonining kamayishiga, shuningdek, joylashtirilgan tashrif buyuruvchilar sonining pasayishiga olib kelmoqda.

Mehmonxona va boshqa joylashtirish obyektlarining aksariyati viloyat markazida joylashgan bo'lib, ular jami obyektlarning 56 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, ayrim tumanlarda umuman bunday obyektlar mavjud emas. Jumladan, Qamashi, Mirishkor, Kasbi va Chiroqchi tumanlarida bu holat kuzatiladi. Hatto turizm rivojlanishida asosiy hudud sanaladigan Shahrisabz shahrida ham 2017-yildan beri bor-yo'g'i 8 ta obyekt ro'yxatga olingan. Shahrisabz tumanida esa shu yildan boshlab birorta obyekt ro'yxatda qolmagan.

Bundan tashqari, mintaqadagi aholi zichligi, tashrif buyuruvchilar hamda ijarada istiqomat qiluvchilar sonini hisobga olgan holda, mehmonxona xizmatlarini tashkil etishda katta muammolar mavjudligi aniqlanadi. Bu muammolarni bartaraf etish esa hanuzgacha dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Respublikada umumiy ovqatlanish bo'yicha bir kishiga o'rtacha xizmat ko'rsatish hajmi 2024-yilda 34,2 ming so'mni tashkil etib, 2014-yilga nisbatan 3,35 barobarga oshgan, ya'ni 24 ming so'mga qimmatlashgan. O'rtacha o'sish sur'ati 111,6 foizni tashkil etadi. Viloyatda esa o'rtacha xizmat ko'rsatish hajmi 2024-yilda 2010-yilga nisbatan 3,9 barobarga oshib, 21,2 ming so'mga qimmatlashgan. Bu holatda o'rtacha o'sish sur'ati 113,2 foizni tashkil etmoqda. Garchi mintaqadagi xizmatlar narxining o'sish darajasi yuqori bo'lsa-da, Respublika darajasiga nisbatan narxlar hozirgacha nisbatan pastroq darajada saqlanib qolmoqda.

Bunga bir nechta omillar ta'sir qilmoqda: xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning mahalliy oziq-ovqat ta'minotchilari bilan bevosita bog'liqligi, viloyat aholisi daromadining darajasi hamda xizmatni tashkil etishdagi xarajatlarning nisbatan pastligi. Faqatgina xizmat ko'rsatilganlar soni bo'yicha ko'rsatkichlar tahliliga nazar tashlasak ham bu farq yaqqol seziladi [8].

Respublikada 2014-yilda tashrif buyuruvchilar soni 26400,39 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 201138,73 ming kishiga yetgan. Qashqadaryo viloyatida esa ushbu ko'rsatkich 754,79 ming kishidan 12491,6 ming kishiga ortgan. O'sish sur'ati respublika bo'yicha 681,7 foizni, viloyat bo'yicha esa 1350,4 foizni tashkil etmoqda. Bu yerda o'sish sur'atlaridagi sezilarli tafovut yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bir tashkilotga bir yilda tashrif buyuruvchilar soni 2014-yilda respublika bo'yicha 2,61 ming kishini, viloyat bo'yicha esa 1,25 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich mos ravishda 6,95 ming va 8,87 ming kishiga yetgan. Respublikada o'rtacha o'sish sur'ati 109,3 foizni, viloyatda esa 119,5 foizni tashkil etmoqda. Bu o'rtadagi 10 foizlik tafovutga teng.

Xizmat ko'rsatuvchi subyektlar soni respublikada 2,86 barobarga oshgan bo'lsa, xizmat ko'rsatilganlar sonidagi o'sish 2,66 barobarni tashkil etmoqda. Viloyatda esa xizmat ko'rsatuvchi subyektlar soni 2,34 barobar ortgan holda, xizmat ko'rsatilganlar soni 7,08 barobar oshgan. Demak, viloyatda ushbu sohaning fundamental rivojlanish

ko'rsatkichlari yaxshi darajada ekanini aytish mumkin. Shu bilan birga, bu ko'rsatkichlarning yuqoriligi natijaviy ko'rsatkichlarning ham yuqori bo'lishini kafolatlaydi, degan xulosa chiqarishga hali asos yo'q. Aksincha, bu holat mintaqada sohani rivojlantirish salohiyati yetarli ekanini bildiradi. Bu esa, natijaviy ko'rsatkichlarning tahliliga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Viloyatning jami mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmidagi ulushi 2014-yilda 1,98 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu nisbat 4,83 foizga yetgan. Aholi soni bo'yicha bu ko'rsatkich 10,2 foizga tengligini inobatga olsak, unda mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmidagi o'sish darajasi mintaqa uchun ushbu iqtisodiyot tarmog'ining ustuvor rivojlanish yo'nalishi ekanini anglatmaydi. Shu sababli, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi o'zgarishini tahlil qilish zarur bo'ladi.

Statistik raqamlarga murojaat qilsak, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi viloyatda 2014-yilda real qiymatlarda 2,22 ming so'mni tashkil etgan. Respublika bo'yicha bu ko'rsatkich 9,84 ming so'mga teng bo'lib, natijada 7,62 ming so'mlik farq yuzaga kelgan.

2024-yilda esa respublika va Qashqadaryo viloyati bo'yicha aholi jon boshiga mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi mos ravishda 31,14 ming so'm va 8,52 ming so'mni tashkil etgan. Oradagi farq 22,62 ming so'mni tashkil etadi. Bu qiymatlar real narxlarda hisoblanganligini alohida ta'kidlash lozim (1-jadval).

1-jadval.

Aholi jon boshiga mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmining o'zgarish tendensiyasi¹

Yillar	O'zbekiston Respublikasi			Qashqadaryo viloyati			Farq (3-3)
	1	2	3	1	2	3	
2014	11,96	121,57	+19,99	3,17	142,96	+38,88	+18,89
2015	13,76	115,06	+14,25	3,5	110,47	+8,45	-5,80
2016	16,27	118,22	+17,48	4,82	137,65	+35,72	+18,24
2017	18,84	115,8	+15,20	5,84	121,17	+18,91	+3,71
2018	22,28	118,26	+17,64	7,09	121,43	+19,23	+1,59
2019	26,8	120,26	+19,57	8,32	117,26	+15,01	-4,56
2020	29,77	111,08	+10,16	8,52	102,46	+0,37	-9,79
2021	31,56	106,01	+5,12	7,81	91,65	-10,28	-15,4
2022	33,59	106,43	+5,57	8,45	108,18	+6,12	+0,55
2023	26,69	79,47	-21,58	8,07	95,5	-6,59	+14,99
2024	31,14	116,68	+15,55	8,52	105,63	+3,95	-11,60

Bu yerda 1 — aholi jon boshiga mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi, ming so'mda², 2 — aholi jon boshiga mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmining o'sish sur'ati, foizda, 3 –jon boshiga mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi va aholi sonining o'sish sur'atlarining farqi, 4 – Respublika va viloyat bo'yicha jon boshiga mehmonxona va umumiy ovqatlanish

¹ O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

² 2010-yilni bazis yil holatida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan

xizmatlari hajmi va aholi sonining o‘shish sur‘atlari farqining tafovuti.

Ko‘rish mumkinki, eng yuqori chetlanish 2014-yil, 2015-yil hamda 2020-yilda viloyat foydasiga, 2020 va 2024-yillarda esa respublika foydasiga kuzatilgan. Umumiy hisobda nisbatan biroz ustunlik viloyatga tegishli bo‘lib, bu ustunlik raqamda ifodalanganda 1,44 foizga teng.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ro‘yxatdan o‘tgan tashkilotlar soni 28924 taga teng bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich 2014-yilga nisbatan 18816 taga ortgan bo‘lib, ya’ni so‘nggi o‘n ikki yilda respublikada umumiy ovqatlanish xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ro‘yxatdan o‘tgan tashkilotlar soni 2,86 barobarga oshgan.

Qashqadaryo viloyatida esa umumiy ovqatlanish xizmatlari bilan shug‘ullanuvchi ro‘yxatdan o‘tgan tashkilotlar soni 2014–2024-yillar oralig‘ida 603 tadan 1409 taga oshgan. O‘n ikki yillik o‘shish ko‘rsatkichi 2,34 barobarga teng bo‘lib, bu davrda tashkilotlar soni 806 taga ortgan.

Ushbu ko‘rsatkichlar asosida, mintaqada nisbatan kichikroq qiymatlar kuzatiladi. O‘shishdagi farq respublikaga nisbatan 52 foizga kam bo‘lgan. Bu esa Qashqadaryo viloyatida umumiy ovqatlanish sektoridagi korxonalar soni sezilarli oshgan bo‘lsa-da, respublika miqyosidagi o‘shish sur‘atidan ancha ortda qolayotganini ko‘rsatadi (2-jadval).

2-jadval.

Mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmati faoliyati bilan bandlar sonining o‘zgarish tendensiyasi (mingta)¹

Yillar	O‘zbekiston Respublikasi			Qashqadaryo viloyati			Farq (3-3, 3/3)	
	1	2	3	1	2	3	4	5
2014	11919,10	87,74	0,74	1003,70	4,66	0,46	-0,27	62,16
2015	12223,80	84,71	0,69	1036,60	4,50	0,43	-0,26	62,32
2016	12523,31	97,35	0,78	1072,30	5,00	0,47	-0,31	60,26
2017	12818,40	106,17	0,83	1108,52	5,69	0,51	-0,31	61,45
2018	13058,30	116,36	0,89	1143,90	7,06	0,62	-0,27	69,66
2019	13298,40	124,4	0,94	1180,90	7,76	0,66	-0,28	70,21
2020	12520,30	118,67	0,88	1218,04	7,25	0,60	-0,28	68,18
2021	13273,12	125,19	0,94	1222,00	6,24	0,51	-0,43	54,26
2022	13541,10	125,77	0,93	1220,00	6,59	0,54	-0,39	58,06
2023	13236,41	96,93	0,73	1171,01	6,38	0,54	-0,19	73,97
2024	13538,90	111,99	0,83	1202,51	6,50	0,54	-0,29	65,06

Bu yerda 1 — ish bilan band aholi soni, ming kishi, 2 — mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlarida bandlar soni, ming kishi, 3 — jami bandlar soniga nisbatan mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlarida bandlarning ulushi, foizda, 4 — Respublika va viloyat bo‘yicha jami bandlar soniga nisbatan mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlarida bandlar ulushining tafovuti, 5 — Respublika va viloyat bo‘yicha jami bandlar soniga nisbatan mehmonxona va umumiy ovqatlanish

¹ O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

xizmatlarida bandlar ulushining nisbati, foizda.

Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarida jami bandlar soniga nisbatan viloyatda mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlarida bandlarning ulushi 2010–2024-yillar davomida 0,42 foizdan 0,54 foizga oshgan bo‘lsa, respublikada bu ko‘rsatkich 0,77 foizdan 0,83 foizga yetganini kuzatish mumkin. Ko‘rsatkichlarning o‘rtacha qiymati viloyatda 0,53 foizga, respublikada esa 0,83 foizga teng. Bu esa Qashqadaryo viloyatida bandlik ulushi respublikaga nisbatan o‘rtacha 36,7 foizga kam ekanligini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlarida bandlar sonining nisbiy ko‘rsatkichi mintaqada respublikaga nisbatan past bo‘lishiga qaramasdan, keyingi yillarda aynan viloyatda bandlar soni bo‘yicha yuqori o‘shish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ushbu qarama-qarshi ko‘rinishdagi natijadorlik holatini chuqurroq tahlil qilish maqsadida mehnat resurslarining samaradorlik darajasi o‘rganildi. Tadqiqot davomida birlik ishchi kuchiga to‘g‘ri keluvchi mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmining real qiymatlari 2010-yil bazis yil sifatida tanlanib, narxlar indeksi asosida hisoblab chiqildi.

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2010–2024-yillar oralig‘ida respublika va mintaqada bo‘yicha birlik ishchi kuchiga nisbatan xizmatlar hajmi barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Jumladan, 2010-yilda bu ko‘rsatkich respublikada 3,29 million so‘m, viloyatda esa 1,43 million so‘mni tashkil etgan. Farq 1,86 million so‘m yoki 2,3 barobarni tashkil etgan. 2024-yilda ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 9,13 million va 4,37 million so‘mni tashkil etib, farq 4,76 million so‘m yoki 2,1 barobarni tashkil qilgan. Bu esa viloyatda mehnat samaradorligi darajasi respublika ko‘rsatkichlariga nisbatan deyarli o‘n yillik ortda qolganligini anglatadi.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmat ko‘rsatish tarmog‘ida mehnat resurslari samaradorligi so‘nggi o‘n ikki yilda 3,1 barobarga oshgan. Respublika miqyosida esa bu ko‘rsatkich 2,8 barobarga teng. Samaradorlikning o‘rtacha qiymatiga nisbatan 2021-yildagi ko‘rsatkich har ikkala darajada ham 1,4 barobarga teng bo‘lgan.

Demak, respublikada ham, viloyatda ham tarmoqdagi mehnat samaradorligi barqaror o‘shish tendensiyasiga ega. Ayniqsa, mintaqada so‘nggi yillarda bu o‘shish tezroq kechmoqda. Bu esa Qashqadaryo viloyatida mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmat ko‘rsatish tarmog‘ida ishchi kuchi samaradorligi yuqori ekanini va hududda bu borada yetarli salohiyat mavjudligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi axborotnomasi. Elektron manba: <https://www.qashstat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>
2. Ю. О. Максимова. Современные тенденции и проблемы развития сферы гостеприимства и общественного питания на примере Краснодарского края. Вестник ассоциации вузов туризма и сервиса. Том 14, №1, 2020, 146-155 стр.

3. Bob Brotherton, Gerry Woolfenden, Bülent Himmetoğlu. Developing human resources for Turkey's tourism industry in the 1990s. *Tourism Management*. Volume 15, Issue 2, April 1994, Pages 109-116.

4. Mukhitdinov K. S., Rakhimov A. N. Empirical models which were built for each sector of the service sector to the population of the region // *South Asian Journal of Marketing & Management Research*. – 2020. – T. 10. – №. 12. – C. 72-85.

5. Rahimov, A. (2023). Mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalarini faoliyatini ekonometrik modellashtirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(6), 245–250.

6. Makhmanazarovna, R. M. (2021). The importance of a synergy approach to teaching an econometrics in the direction of the economy. In international conference on multidisciplinary research and innovative technologies (Vol. 2, pp. 5-7).

7. Sul'tonov, S. (2024). Aholi daromadlari tabaqalashuvini kamaytirish borasidagi islohatlarni takomillashtirish yo'nalishlari. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(4), 526–532.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**